

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(2021- yil yanvar-sentabr, dastlabki ma’lumot)

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat bo‘yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 311,1 ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 11,2 %ga oshdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy mehnat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Korxonalar va tashkilotlar soni
101,1 %



Xodimlar soni
102,7 %

Ish haqi fondi
120,9 %




O‘rtacha ish haqi
114,5 %

Ma’lumot uchun: O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining

(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

(2021 yil yanvar-sentabr oylari uchun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)





Iqtisodiy faoliyatning barcha turlarida 2020-yilning mos davriga nisbatan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sishi kuzatildi. moliya, sug'urta faoliyatida – **5 994,2** ming so'mni, tashish va saqlash sohasida – **2 887,3** ming so'mni tashkil etdi.


O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Sanoat



Qurilish




Tashish va saqlash




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


Moliya va sug'urta faoliyati



Ta'lim



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 047,2 ming so'mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 16,6%ga oshgan.



Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona shahri - **146,9 %** va Qo'qon shahri - **125,4 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Shu bilan birga, 15 ta hududda ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.


Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Furqat tumani – **97,8 %**, Marg'ilon shahri - **97,7 %**, Dang'ara tumani - **93,7 %** Yozyovon tumani – **96,2 %**, hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Qurilish sohasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Qurilish sohasi bo'yicha bir qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Qo'qon shahri—**130,9 %**, Dang'ara tumani- **147,1 %**, Farg'ona shahri – **119,2 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, viloytning 4 ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyt darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlari Yozyovon tumani - **94,7 %**, Bag'dod tumani - **80,1 %** hissasiga to'g'ri keldi.



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi




Savdo sohasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Savdo sohasi bo'yicha bir qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona tumani - **114,7 %**, Qo'qon shahri – **112,9 %**, Bag'dod tumani - **153,4 %** hissasiga to'g'ri kelgan.




Shu bilan birga, viloyatning 5 ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari - **82,2 %** Toshloq tumani – **97,5 %**, Oltiariq tumani - **85,2 %** hamda Quva tumani - **76,3 %** hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Sanoat sohasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Sanoat sohasi bo'yicha bir qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.


O'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona shahri - **117,2 %**, Toshloq tumani – **106,1 %** hissasiga to'g'ri kelgan.



Shu bilan birga, viloyatining 4 ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi. Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Qo'shtepa tumani – **87,6 %**, Qo'qon shahri - **96,4 %** hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Furqat tumani-**120,5 %**, Quva tumani - **118,8 %**, hamda Qo'shtepa tumani - **110,5 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatning **11** ta hududida o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Farg'ona tumani – **99,0 %**, Bag'dod tumani - **93,8 %**, Qo'qon shahri - **94,5 %**, O'zbekiston tumani - **90,2 %**, Dang'ara tumani – **83,5 %**, hamda Oltiariq tumani – **86,6 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm





Tashish va saqlash sohasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Toshloq tumani - **117,1 %** va Qo'qon shahri – **104,9 %** kuzatildi.


O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Shu bilan bir qatorda, viloyatning 4 ta hududida tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Tashish va saqlash sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Farg'ona shahri – **71,9 %**, Quvasoy shahri -**38,8 %**, hamda Rishton tumanida - **71,1 %** kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm






Moliya va sug'urta faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Moliya va sug'urta faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Qo'qon shahrida – **121,5 %**ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning 6 ta hududida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi. Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Farg'ona shahrida **-98,4 %**, O'zbekiston tumani – **23,4%**, Buvayda tumani - **67,3 %**, va Uchko'prik tumanida **-57,9 %** hissasiga to'g'ri keldi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %da

(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Viloyat bo'yicha 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida 2020- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi sanoatda **98,1** %ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda **14,4** %ga, ta'lim sohasida **16,6** %ga, axborot va aloqada **14,7** %ga bank, sug'urta faoliyatida **18,2** %ga, o'sganligi kuzatildi, qurilishda **95,9** %ga, savdoda **89,8** %ga kamayishi kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati %da

(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Farg'ona shahrida **3 149,2** ming so'mni, Qo'qon shahrida **2 673,3** ming so'mni, Quvasoy shahrida **2 250,4** ming so'mni va Marg'ilon shahrida **2 039,1** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorni Dang'ara tumanida **1 816,6** ming so'mni, Farg'ona tumanida **1 799,0** ming so'mni tashkil etgan.



Farg'ona viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

	yanvar-sentabr 2020- yil	yanvar-sentabr 2021- yil	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	2062,1	2311,1	112,1
Farg'ona	2742,2	3149,2	114,8
Qo'qon	2243,1	2673,3	119,2
Quvasoy	2100,6	2250,4	107,1
Marg'ilon	1885,6	2039,1	108,1
Oltiariq	1619,9	1619,7	100,0
Qo'shtepa	1788,1	2011,3	112,5
Bag'dod	1907,1	2118,6	111,1
Buvayda	1512,0	1685,8	111,5
Beshariq	1485,2	1639,5	110,4
Quva	1730,1	1944,1	112,4
Uchko'prik	1745,7	1887,0	108,1
Rishton	1721,7	1914,7	111,2
So'x	1755,5	1841,9	104,9
Toshloq	1921,9	2401,4	124,9
O'zbekiston	1709,6	1948,4	114,0
Farg'ona	1488,2	1799,0	120,9
Dang'ara	1583,0	1816,6	114,8
Furqat	1842,1	2063,4	112,0
Yozyovon	1881,9	1997,1	106,1

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2020 – yildagi “O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4938-sonli Qaroriga muvofiq, joriy yilning 1 sentabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 822 000 so'mni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlaridan aniqlanadi.

**Farg'ona viloyati statistikasi
Demografiya va mehnat statistikasi
boshqarmasi**

Tel: (73) 241-97-74, 249-87-32

